

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONINING  
TO’RTINCHI HIKOYASI TAHLILI

*Fardu Filologiya fakulteti*

*2-kurs talabasi*

**Xolmatova SHahnoza**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada dostonning to’rtinchi musofir tomonidan aytilgan hikoyat tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hikoyat Juna va Mas’udning saxiyligi haqida. Saxiylik va baxillik doim qarama-qarshi bo’lib kelgan. Juna va Mas’ud saxiylik bir-biridan qolishmaydi. Ularga hasad qilganlar baxilligi tufayli zavol topishadi.*

**Kalit so’zlar:** *saxiylik, baxillik, ko’zgu, xiyla-nayrang, shoh, Juna, Mas’ud, Jaypur, Ballu, Taroz, Dehli, zulm.*

*Fardu Faculty of Philology*

*2nd year student*

**KHolmatova SHakhnoza**

**Annotation:** *In this article, the story told by the fourth stranger of the saga has educational significance. The story is about the generosity of Juna and Masud. Generosity and avarice have always been opposites. Juna and Mas’ud are very generous. Those who envy them will suffer because of their avarice.*

**Key words:** *generosity, avarice, mirror, deceit, king, Juna, Masood, Jaipur, Ballu, Taroz, Delhi, tyranny.*

*Фарду Факультет филологии*

*студент 2 курса*

**Холматова Шахноза**

**Аннотация:** *В данной статье история, рассказанная четвертым незнакомцем саги, имеет воспитательное значение. История о щедрости Джона и Масуда. Щедрость и жадность всегда были противоположностями. Джона и Масуд очень щедр. Те, кто им завидуют, пострадают из-за своей алчности.*

**Ключевые слова:** *щедрость, скупость, зеркало, обман, царь, Джона, Масуд, Джайпур, Баллу, Тароз, Дели, тирания.*

Buyuk mutaffakir Alisher Navoiyning har bir asari bebaho qiymatga ega. Asarlari ichida eng mashuri "Xamsa"dir. "Xamsa" asari: "Hayrat-ul abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab"ai sayyor", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlarni qamrab olgan.

Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom tarixiy shaxs sifatida Eronning sosoniy hukmdori Varaxran (420-438-yillarda podshohlik qilgan)ga borib taqaladi. Bu podshoh qulonni ovlashga juda o'ch bo'lganligi uchun xalq orasida Bahrom Go'r laqabi bilan shuhrat topgan.

Dostondagi 7 musofirning hikoyalari xalq og'zaki ijodi asarlari bilan hamohang.

Dostondagi to'rtinchi hikoyat saxiylik va kamtarlik to'g'risida. Dehlida sultonlik qilgan Juna saxovatpeshaligi bilan mashhur bo'ladi. Bir musofir Junaga ko'zgu sovg'a qiladi. Ko'zgu hislati shu ediki, rost gapirgan odamning yuzini oq, yolg'on gapirgan odamning yuzini esa qora ko'rsatardi. Sulton musofirdan undan ham o'tadigan saxiy borligini so'raydi. Musofir yo'qligini aytadi, uning yuzi qorayadi. So'ngra u undan ham o'tadigan saxiy borligini, ismi Mas'ud va Taroz o'lkasida yashashligini aytadi. Juna Mas'udni ko'rish uchun Tarozga jo'naydi. U yerda Mas'udni topadi. Uning saxiylikda o'zidan o'zishiga lol qoladi va u bilan do'st tutinadi. Mas'ud Junaga o'zi uchun nimaki aziz bo'lsa, hammasini ikkilanmay hadiya qiladi: mayi tugamaydigan jomini, kanizagini va Gulgun laqabli otini. Bundan ta'sirlangan sulton Mas'udni Tarozga hokim qilib tayinlashga farmon beradi. Taroz hokimi Jaypur bundan bezovta bo'lib, Ballu degan qattol vazir bilan maslahatlashib, Mas'udni yo'q qilish rejasini tuzishadi. Mas'udni mast qilishib, bir chohga tashlashadi.

Jayurning qizi Mas'udni sevganligi tufayli, uni chohdan qutqaradi. Ular ikkisi qochib Dehliga kelib qolishadi. Mas'ud do'sti Junaning Dehli sultoni ekanligini bilmasdi, shuning uchun pul toppish ilinjida saroyga boradi. U yerda sehrli jomni, kanizni va Gulgun otni ko'rib hayron bo'ladi. Keyin shoh Juna ekanligini bilib qoladi. Mas'udni tanigan saroy mahramlari Junaga xabar berishadi. Do'stini yo'qotib hajr azobida azoblanayotgan shoh bundan bag'oyat shodlanib, do'stiga mehribonlik ko'rsatadi. Jaypur va Balluni esa jazolaydi.

Hikoyada saxiylik, do'stlik va oliyanoblik kabi hislatlar ulug'langan. Navoiy do'stlikni go'zal tasvirlagan. Hikoyatning hadislarga hamohang jihatlari ham e'tiborimizni tortdi: o'zi yaxshi ko'rgan narsasini o'zgalarga ilinish. Bu hislat juda kam insonlarda mujassam.

Hikoyatda muallif shohlarni ham saxovatpesha bo'lishga undamoqda. Buni Juna orqali tasvirlagan. E'tiborga molik tomoni shundaki, Juna garchand shoh

bo'lsada hech ham kibrga berilmadi. Mas'udni saxovatpeshaligini o'zinkidan ortiq ekanligini ko'rdi va tan oldi.

Bunday oliyjanoblik kamchilik shohlarda uchraydigan hislat.

Jaypur va Ballu kabi yomon kimsalar hasadi tufali o'zlariga zulm qilishdi. Hasad insonni turli xiyla-nayranglarga undaydi. Ular hiyla-nayranglarini Mas'udga qo'llashdi. Lekin ularning jinoyati jazosiz qolmadi.

Inson saxiy bo'lmoqqa harakat qilishi zarur. Saxiy insonni ko'pchilik hurmat qiladi va yaxshi ko'radi. Uning do'stlari doim ko'p bo'ladi. Saxiyligi tufayli ular Yaratguvchining nazriga tushadi.

Xulosa qilganda, biz yoshlar Navoiy siymosini yaxshiroq anglashimiz zarur. Uning har bir asarini puxta o'rgansak va undan xulosa chiqargan holda hayotimizda qo'llasak, hayotimizni yaxshiliklar bilan boyitgan bo'lamiz. Navoiyni har bir asarini anglamoq uchun Navoiyni anglamoq kerak. U har bir asarida, har bir jumlasida nima demoqchi ekanligini his qilmoq kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A.Navoiy "Sab'ai sayyor" dostoni
- 2.N.Kamolov "Ma'nolar olamiga safar"
3. M. Asadov "O'zbek adabiyoti tarixi va yangi o'zbek adabiyoti"
- 4.Sh. Sirojiddinov, D.Yuspova, O.Davlatov "Navoiyshunoslik"

#### INTERNET SAYTLARI:

- 1.[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)